

RANGLAR VA ULARNING XARAKTERLI XUSUSIYATLARI, ULARLARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10725077>

Esanova Lobar Kulmurotovna

NavDPI "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
kafedra o'qituvchisi:.

Annatatsiya

Tasviriy san'at har bir ijodkor shaxs uchun juda keng foaliyatlar maydonidir. Rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim o'rinni egallaydi. Jumladan rangtasvir ishlashga va uni o'z ma'naviy hayotida foydalanishgan odamlar qadimgi paytlardanoq intilib kelganlar. Tasviriy san'at texnologiyasi darslarida ranglar bilan ishlashda ko'pchilik hollarda o'quvchilar ularning o'zbekcha nomlarini yaxshi bilmasliklari qiyin ahvolga qo'yadi shu va boshqa bir qancha misollar keltirilgan.

Аннотация

Изобразительное искусство – это очень широкое поле деятельности для каждого творческого человека. Мастерство рисования занимает важное место во всех видах искусства. С древних времен люди стремились сделать рисунок карандашом и использовать его в своей духовной жизни. Этому и ряд других примеров приводятся при работе с цветом на занятиях по технологии изобразительного искусства, в большинстве случаев учащиеся плохо знают свои узбекские названия.

Abstract

Fine art is a very wide field of activities for every creative person. Mastery of drawing occupies an important place in all types of art. Since ancient times, people have been striving to make pencil drawings and use them in their spiritual life. This and several other examples are given when working with colors in visual art technology classes, in most cases, students do not know their Uzbek names well.

Kalit so'zlar

Ko'z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektor ranglarni ko'ramiz, qaytarish koeffisenti, fotametr, gullar, o'simliklar, ochiq va tiniq ton, zangori bo'yoq, to'q zangori, och havo rang, to'q havo rang, feruza rang, billur, ko'kish, ko'kish binafsha....

Rangli ton-ranglarining to'lqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga ko'ra biz ko'z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektor ranglarni ko'ramiz, hamda idrok qilamiz. Lekin rang tonlari ularga qo'yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko'pdir. Agar biror rangga oq rang qo'shilsa, mazkur

rang tonining to'lqinlar uzunligi o'zgarmaydi. Chunki oq rang qo'shilganda faqatgina rang yorqinligi o'zgaradi va u qaytarish koeffisenti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o'lhash uchun «fotametr» asbobidan foydalaniladi.

Tasviriy san'at texnologiyasi darslarida ranglar bilan ishlashda ko'pchilik hollarda o'quvchilar ularning o'zbekcha nomlarini yaxshi bilmasliklari qiyin ahvolga qo'yadi. Bu hol ayniqsa, rangtasvir ishlashda, rang va rang tonlari to'g'risida so'z yuritilganda ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ma'lumki, bo'yoqlarning tonlari va ularning nomlari xilma-xil bo'lib, ular o'zbek tilida atroflicha ko'rib chiqilmagan. Shuning uchun rang to'grisida gapirilayotganda tabiatda bor bo'lgan narsalar, gullar, o'simliklar va shu kabilarning nomlaridan foydalaniladi. Masalan, baxmal rang, jylda rang, bodam rang, olovrang, o't rang, yoki maysa rang va hokazo, ammo bu xildagi shartli nomlari ko'pincha ranglarning tonlarini aniq tasavvur qilish imkonini bermasligi mumkin. Shuning uchun bo'yoqlarnig xususiyatlari bilan tanishishda, ularning maxsus guruhlarga ajratib, bir-biriga bog'lab o'rgangan.

Sariq ranglar umuman ochiq va tiniq tonda bo'lib, sariq pigmenti bor bo'lgan moddalardan olinadi. Sariq ranglarning eng yaxshi xususiyati shundaki, ularni xoxlagan bo'yoq bilan aralashtirish mumkin. Bo'yoq qavati qog'oz sirtiga surtilganda tekis yotadi. Suvda osonlik bilan eriydi.

Sariq ranglar, o'z navbatida, zangori rang bilan aralashib, quyidagi tonlarni hosil qiladi; sarg'ich, yashil, tutaki, zainovi, zumrad ranglar.

Qizil rang bo'yoqlar ichida o'zining alohida xususiyati bilan ajralib turadi. Chunki uning turi ko'p bo'lib, bir-biridan toni jihatidan birozgina farq qiladi.

Qizil bo'yoqlar asosan: qirmizi, alvon rang, gulgun, baxmal rang, och qizil, to'q qizil, och pushti, nim pushti, pushti, qizil shol, och safsar, nim safsar, siyoh rang, qizg'ishtob, och binafsha, ko'kish binafsha, qizg'ish binafsha, to'q binafsha va hokazolardan iborat.

Zangori bo'yoq sovuq ranglarning butun bir gammasini tashkil qiladi. Kerakli sovuq rang hosil qilish uchun zangori rang shu bo'yoq bilan aralashtiriladi yoki qog'oz (ya'ni kerakli joyga) ustidan suriladi. Shuni esda tutish lozimki, zangori rang sariq rangning har xil tonlari bilan hamisha ham kerakli tonlarni hosil qilavermaydi.

Zangori rangning och zangori, to'q zangori, och havo rang, to'q havo rang, feruza rang, billur, ko'kish, ko'kish binafsha va hokazo tonlari bo'ladi.

Yashil bo'yoqlar sariq rangning bevosita zangori rang bilan aralashuvidan hosil bo'ladi. Sariq rangning ta'siri ko'proq bo'lsa-sariqqa, zangori rangning ta'siri ko'proq bo'lsa-zangoriga xos ton bo'ladi.

Zumrad rang ravshan, ochiq shaffof, kraplakdan boshqa barcha bo'yoqlar bilan yaxshi aralashadi. Juda go'zal yashil rang, erta bahor ko'katlarning rangini eslatuvchi tiniq bo'yoq, xrom aksida zaytun daraxti rangidagi eslatuvchi tiniq bo'yoq, xrom aksida zaytun daraxti rangidagi tiniqmas bo'yoq (yoki sovuq tondagisi yashil) tutaki - zangoriga sariq rangni oz miqdorda qo'shishdan hosil bo'ladigan rang tusi.

Qora rang boshqa ranglardan o'zining rangli qarama-qarshili xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qora rang yordamida axromatik butun bir kompozitsiyani topish mumkin. Uning har qanday xromatik rang bilan aralashmasi axromatik ranglarning yoki kerakli ranglarning xira tonini beradi.

Jigarrang bo'yoqlar qora rangning qizil, sariq va zarg'aldoq tonlari bilan aralashuvidan hosil bo'ladi. Masalan, tabiiy siyena tillasimon sariq rangli bo'yoq, oq rangga yaqin tonda. Kuydirilgan siyena esa, qizg'ish jigarrang, to'q jigarrang, ba'zan yashil tonda tovlanadi, kuydirilgan umbra tiniq, ravshan sariq tondan to'q sariq tongacha yoki qizg'ish tondagi to'q jigarrang tonda bo'ladi. Mars-chiroylig'i jigarrang tondadir. Vandik jigarrang- to'q jigarrang, nihoyatda nafis tonsiga ega.

Bu ranglarni hosil qilish usulini har bir o'quvchiga mashq qildirish lozim. Shunda ular yuqorida nomlari zikr etilgan ranglardan boshqalari ham mavjud ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Oq rang akvarel bilan ishlashda qo'llanilmaydi. Lekin biroz bo'lsada, uning xususiyatlari to'g'risida fikr yuritamiz. Oq rang, asosan, guash, tempera bilan ishlashda qo'llaniladi. Shuni esda tutish lozimki, oq rangning guash yoki temperaning boshqa ranglari bilan aralashmasi tiniq ton hosil qilmaydi. Naqshlarni (qog'oz) bo'yashda oq rangning akvarel bo'yoqlari bilan aralashuvidan hosil bo'lgan tonlardan foydalananiladi. Chunki akvarel bo'yoqlarining oq rang bilan aralashuvidan chiroylig'i rang tuslari hosil bo'ladi.

Ranglarning hayotda insonlarga psixologik ta'siri kattadir, oddiy misol, ko'cha harakati qonuniyati, mashinalar, yo'lovchilar ko'chada yurganda albatta chorrahalarga o'rnatilgan svetaforga rioya qiladilar. Qizil chiroq yonsa yurish kishilar uchun xavfli, sarig' chiroq yonsa o'tish uchun tayyor bo'lib tur, agarda ko'k chiroq yonsa o'tish mumkin deganidir. Mana ko'rdingizmi bu ranglar kishi psixologiyasiga tez va katta ta'sir qiladi va bunga doim rioya qilishga o'rgatadi.

Shunday mavzularda ishlangan rassomlarning rangtasvir asarlariga nazar tashlasak, unda suvratning umumiyligi rang tuzilishida yorqin, sho'xchan, rangdagi bo'yoqlar ishlatganini ko'ramiz. Och favorang, och sariq, to'q sariq, zarg'aldoq, och qizil, pushti, och bargikaram va shunga o'xshash ranglarga ko'zimiz tushadi.

Bularning hammasi yaxshilik, xursandchilik, quvnoq, jo'shqin hayotni ko'rsatuvchi voqealardir.

O'zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasining faxriy a'zosi O'rol Tansiqboyevning asarlaridan; «Jonajon o'lkam», «Qayroq suv ombori», «Mening qo'shig'im» kabi asarlari bizga ma'lum.

«Mening qo'shig'im» manzar asari shunday ishlanganki, bir qarashda kishini o'ziga maftun qiladi, shunday joylarga borib dam olishni havas qildiradi. Manzaraning oldingi planida ochilib turgan yorqin sariq rangli tog' gul, orqa tomonda tog' manzarasi, yaraqlab ko'rinish turgan qishloqni ko'ramiz. Moviy manzara tomoshabinlarni o'z bag'riga chorlayotganday deb his qilasiz.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Hikmat Raxmonovning «Yozgi sevinch» asarida, haqiqatga ham bolalar issiq yozda, quyosh nurida, yoz ne'matlarini sevib, maza qilib tarvuz tanovvul qilmoqdalar, bolalar ahil, xushchaqchaq, rang-barang kiyimlarda, ular tomoshabinni quvontiradi, asarning umumiyligi ranggi xushchang, yorqin bo'yoqlarda ishlangan jozibali bo'lib, bolalik davrini kuylaydi.

K.Bryullovning «Pompeyning so'nggi kuni», davrimizning I-asr boshlarida Italiyaning Pompey shahri atrofida, Vizoviy yonar tog'i ochilib kechasi shaharni yuqori darajadagi qizib yotgan suyuqlik – lava shahar ustiga bosib keladi va butun imorat daraxt va boshqa narsalarni vayron qiladi, odamlar vahimaga tushib, bu daxshatdan qutilish uchun ko'cha boshlaydilar.

Rassom bu mavzuni har tomonlama o'rganib, o'z asarini yaratadi. Biz bu asarni tomosha qilarkanmiz, albatta birinchi galda ranglarga, qora bulutsimon tutinga, olovga, kishilar harakatiga ko'zimiz tushadi, fojea, qayg'u va azobni sezamiz.

Demak, qora, qizil, zarg'aldoq ranglar qayg'uni fojeani eslatuvchi ranglardir, bunday ranglar kishilarga psixologik ta'sir etadi.

ADABIYOTLAR

1. Sadiev, S. (2023). DEVELOPING STUDENTS' ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES. *Science and innovation*, 2(B9), 106-108.
2. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o'ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 114-118.
3. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE

FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY
IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 192-198.

4. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.

5. Soli Tolibovich Sadiyev O'RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTAB-LARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniaturamaktablarining-metodlari> (дата обращения: 26.10.2023).

6. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS'ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B9. – C. 106-108.

7. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 234-237.

8. Jalolov S. METHODOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF ARTS TEACHERS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B5. – C. 37-39.

9. Абдуллаев Акбар Хикматович НРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО // Academy. 2021. №4 (67). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo> (дата обращения: 02.11.2023).

10. Эсанова, Л. К. (2022). Деятельность в интересах подростков на уроках изобразительного искусства. *Science and Education*, 3(1), 1043-1047.

11. Эсанова, Л. К. (2022). Использование нетрадиционных техник в изотворчестве дошкольников. *Science and Education*, 3(12), 632-638.